



CHET TILLARINI O'RGANISHDA O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Navro'zova Marjona Baxtiyor qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2-fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi.*

Ilmiy raxbar: Zubaydova N.N.

Annotatsiya: Bugungi kunda, maktab o'quvchilari, talabalarda va o'qtuvchilarda xorijiy tillarni ya'ni ingliz tilini o'rgatishda va o'rgatishda o'qish(reading), yozish(writing) ko'nikmasini shakllantirishda biroz qiyinchilar tug'dirmoqda. Ushbu maqolada o'qish va yozish ko'nikmasini shakllantirishda foydalaniladigan ayrim interfaol metodlar va o'yinlar haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: o'qish va yozish ko'nikmasi(reading and writing), o'yinlar, interfaol metodlar, xorijiy tillar.

Barchamizga ma'lumki biz, biror bir chet tilini o'rganmoqchi bo'lsak avvalo biz o'sha tilining grammatik qoidalari, tarixini o'rganishimiz kerak. Jumladan, ingliz tili o'rganishda ko'roq talabalarda wrting(yozish) va reading(o'qish) ko'nikmalarini rivojlantirish biroz muoamoli hisoblanmoqda. Ya'ni ushbu ko'nikmalar orqali test imtixonlari topshirilganda ko'pchilikda yozish ko'nikmasi bo'yicha ijobiy natijalar kam hisoblanmoqda . Shu bois ushu ilmiy ishda bu ikki ko'nikmani rivojlantirish uchun ayrim ma'lumotlar berib o'tildi.

Yozish ko'nikmasi(Writing skills) bu muloqotning muhim qismidir. Yozish qobiliyatlari g'oyalar, ma'lumotlar yoki his-tuyg'ularni yozma matn orqali samarali va izchil etkazish qobiliyatini anglatadi. Ushbu ko'nikmalar grammatika va tinish belgilarini tushunishdan g'oyalarni izchil tartibga solishgacha bo'lgan bir qator kompetensiyalarni o'z ichiga oladi .Samarali yozish, shuningdek, mo'ljallangan auditoriya uchun ideal tarzda yozishni o'z ichiga oladi. [1].

O'qish qobiliyatlari - bu shaxsga yozma matnlarni sharhlash, tushunish va ma'no chiqarish imkonini beradigan qobiliyatlar. Ular so'zlarni asosiy tarjima qilishdan tortib, ilg'or tushunish va tanqidiy tahlilgacha bo'lgan bir qator vakolatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalarni egallash har xil turdagi matnlar va kontekstlarda samarali o'qish imkonini beradi.[2].

Quyda yozish va o'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun bir nechta interfaol metodlarga misollar berildi. Ular quydagilar: "Streching sentence game"(gaplarni


1

2



kengaytirish o'yini), "Crazy sentence game"(ajoyib gap tuzish o'yini), "The speed Reading challenge" (tez o'qish mashqi) va qiziqarli o'yinlar.

"Stretching sentence game"- bu o'yin yozish ko'nikmasini shakllantirish uchun rag'batli ajoyib o'yin hisoblanadi. Bu o'yin asosan dars jarayonida o'yanash uchun mo'jallangan bo'lib yozish ko'nikmasini rivojlantirish va oddiy gaplarni tuzish uchun mo'jallangan bo'lib o'qtuvchi bilan birgalikda guruh bo'lgan holatda o'yanaldi. Bu o'yin Rummy o'yniga o'xshab ketadi. O'yin quydagicha boshlanadi. O'qtuvchi tomonidan kartochkalarga so'zlar yozib kelinadi. Masalan :(book- kitob school-maktab, dog -it) tarzida. Qatnashmoqchi bo'lgan o'quvchilar navbat ma navbat chiqib so'z tanlaydi va unga gaplar tuzib kengaytirishi kerak bo'ladi. Gaplarni kengaytirish uchun (why, what, where, who or when) so'roq so'zlaridan foydalaniladi. Qaysi guruh o'quvchilari tez va grammatik jihatdan to'g'ri agaplar tuzsa o'sha guruh g'olib bo'ladi. Quydagi rasmlarda ushu o'yin batafsilroq tushuntirildi.



Crazy sentence game.(Ajoyib gap tuzish o'yini) bu o'yin asosan bo'shlig'ich (elementary) va pre-intermediate(o'rta darajadagi) til o'rganuvchilarga moslashgan bo'lib bu juda qiziqarli va foydali o'yindir. Bu o'yinda quti ichiga fe'llar ikki xil shaklda va rangda yozilgan bo'ladi. Ya'ni yaxshil rangda yozilgan fe'llar: gaplar, va birikmalar tuzishga oson hisoblanadi. Ko'k rangda yozilgan fe'llar: ozgina murakkabaroq hisoblanib, jumlar va gaplar tuzishga qiyinroq hisoblanadi. O'yin quydagicha boshlanadi: sinf o'quvchilari 2 guruhga bo'linadi. Har bir guruhdan bir nafardan o'quvchilar chiqib, ko'zlarini yumgan holda ingliz tilida fe'llar tanlaydilar va tanlagan fe'llariga gaplar tuzishadi. Murakkab darajadagi fe'llarga 2 ball, oddiy darajadagi fe'llarga 1 balldan beriladi. Topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu vaqt ichida qancha ko'p birikmalar va xatosiz gaplar tuzgan guruh o'quvchilari g'olib hisoblanadi va g'olib bo'lgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

The speed reading challenge" (tez o'qish mashqi). Tez o'qish tanlovi kitobxonlar uchun o'qish qobiliyatini rivojlantirish uchun qiziqarli mashg'ulotdir. Ushbu mashg'ulotni o'zingiz o'qimoqchi bo'lgan inglizcha kitobni tanlashdan



boshlang va belgilangan vaqt uchun taymerni(vaqt)ni o'rnating. Bu 10 daqiqa, 15 daqiqa yoki siz xohlagan istalgan vaqt bo'lishi mumkin. Taymer ishga tushgandan so'ng, tushunish qobiliyatini yo'qotmasdan iloji boricha ko'proq sahifalarni o'qing. Odatdagidan tezroq o'qish uchun o'zingizni sinab ko'ring yoki berilgan vaqt ichida kim ko'proq sahifa o'qiy olishini bilish uchun do'stingiz bilan raqobatlashing. Mashg'ulot oxirida natijalaringizni taqqoslang va muvaffaqiyatingizni nishonlang. Bu mashg'ulot nafaqat tezroq o'qishga yordam beradi, balki, diqqatni jamlashga va ko'proq ma'lumotni saqlashga yordam beradi. Ushbu mashg'ulotni tez- tez takrorlash reading(o'qish) ko'nimasini shakllantirish uchun juda ham foydali. [3].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz ingliz tilda grammatik, punktaksion xatoliklariz yozish ko'nikmasini shakllantirishda yoki hech qanday qiyinchiliklarsiz ravon ,sifatli va tezda o'qish ko'nikmasini shakllantirmoqchi bo'lsak biz allbata interfaol metodlardan va internet resurslaridagi ushbu ikki ko'nimaga oid bo'lgan video darslardan foydalanishiz kerak. Reading yoki writing ko'nikmasini shakllantirishda, qiziqarli o'yinlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'yinlar faqat ko'ngil ochar mashqlar bo'lib qolmay, bolarda tezkorlik tanqidiy, mantiqiy fikrlash ko'nikmlarini shakllantirishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://images.app.goo.gl/RvhwXjHhBQXEU5K86>.
2. Writing lesson: Stretching a Sentence and the Verb Shaker | Blog de Cristina <https://www.cristinacabal.com/?p=2993>.
3. <https://numberdyslexia.com/reading-games-for-adults/>.
4. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
5. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
6. <https://ahaslides.com/uz/blog/17-fun-games-to-play-in-class-all-grades/?ved=2ahUKEwjs5IHA6tr4AhXiyDgGHeBIDZwQFnoECAwQAQ>.